

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQARO BAHOLASH DASTURIGA TAYYORGARLIK  
BOSQICHLARI**

**Nuriddinova Azizaxon**  
*Namangan davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'limgak fakulteti Boshlang'ich ta'limgak yo'naliishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada umumiy o'rta ta'limgak muktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturining PIRLS xalqaro tadqiqoti-2022 qamrovi doirasiga tayyorgarlik bosqichlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** xalqaro baholash dasturi, zamonaviy ta'limgak, mustaqil fikr, ijodiy fikr, PIRLS, xalqaro tadqiqot, ijtimoiy matn.

**STAGES OF PREPARATION FOR THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM IN  
PRIMARY SCHOOL**

**Annotation:** this article discusses the stages of preparation for the PIRLS International Survey 2022 coverage of the International Assessment Program for Primary School Students in General Secondary Schools.

**Keywords:** international assessment program, modern education, independent thinking, creative thinking, PIRLS, international research, social text.

**ЭТАПЫ ПОДГОТОВКИ К ПРОГРАММЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОЦЕНИВАНИЯ В  
НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ**

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются этапы подготовки к охвату Международной опросом PIRLS международной программы оценивания учащихся начальных классов в общеобразовательных средних школах.

**Ключевые слова:** международная программа оценивания, современное образование, независимое мышление, креативное мышление, PIRLS, международное исследование, социальный текст.

**“Odamlar qachonki o'qishdan to`xtashsa, taffakkur qilishdann to`xtashadi” Deni Dudro**

Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Sababi, maktabga kelgan bola ilk kunlaridan boshlab alifbodagi

harflarni yaxshi taniy olsa, berilgan matnlarni tez va ongli o'qiy olsa, o'qiganlarini tushunsa, kelajakda o'rganiladigan barcha fanlarni juda yaxshi o'zlashtira oladi.

O'qish savodxonligini tadqiq etishda ta'lif sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) PIRLS tadqiqoti (Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash xalqaro tadqiqoti) mazkur assotsiatsiyaning 1991-yildagi o'qish savodxonligini tadqiq etish dasturiga qo'shimcha holda 2001-yildan joriy etila boshlandi. Har besh yilda o'tkaziladigan ushbu xalqaro tadqiqot bolaning mustaqil inson sifatida rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, boshlang'ich ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini xalqaro miqyosda baholaydi. Odatda, ushbu rivojlanish davrida o'quvchilar o'qish ko'nikmasini hosil qilgan bo'lib, endi bu ko'nikmadan boshqa fanlarni o'rganishda foydalanayotgan bo'ladi. PIRLS xalqaro tadqiqoti o'qish savodxonligini tadqiq etishda Ta'lif sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) o'quvchilarning matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash tadqiqotiga (Trends in International Mathematics and Science Study—TIMSS) qo'shimcha tarzda ishlab chiqilgan. PIRLS xalqaro tadqiqoti o'qish savodxonligini tadqiq etishda Ta'lif sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) Boston kollejida olib boriladigan TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazi tomonidan IEA xalqaro assotsiatsiyasining Amsterdam va Gamburg shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

O'qish savodxonligining rivojlanishi har bir o'quvchining o'sib-ulg'ayishi, ta'lif olishi va kundalik hayotida muhim ahamiyat kasb etgani bois, o'qish savodxonligini tadqiq etishda Ta'lif sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) qariyb 60 yil mobaynida o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini muntazam ravishda xalqaro miqyosda baholab, ularning o'qib o'rganishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishga harakat qilmoqda. Ushbu assotsiatsiya (IEA) turli ta'lif tizimiga ega ishtirokchi mamlakatlarda ta'lif sohasida olib borilayotgan islohotlarni yanada teran tushunish maqsadida 1960-yillarda ta'lif sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarni xalqaro miqyosda qiyosiy tahlil qiluvchi hukumat agentliklari va milliy tadqiqot institutlaridan tashkil topgan mustaqil xalqaro tashkilot hisoblanadi. Har bir PIRLS baholash tadqiqoti ota-onalar yoki vasiylar, maktablar, o'qituvchilar, mamlakatlar va o'quvchilar uchun mo'ljallangan qator so'rovnomalar hamda o'quvchilarning o'qib o'zlashtirish ko'nikmalarini baholashdagi o'zgarishlarni zamonaviy tarzda tahlil qiladigan ayni shu an'anani davom ettiradi. O'quvchilarning o'qishni o'rganish va ta'lif olishdagi imkoniyatlari haqidagi so'rovnama ma'lumotlari erishilgan natijalarni talqin qilish uchun muhim ma'lumotlarni taqdim etadi

Bir so'z bilan aytganda tushunib o'qish bilimlar poydevori hisoblanadi. Masalan, matematikada beriladigan masala shartlari, tabiiy fanlardagi atrof-olam haqidagi ma'lumotlar, tarbiya, ona tili, o'qish darsliklaridagi qiziqarli ertak va hikoyalar, qolaversa, texnologiya fani bo'yicha loyihalashtirish ishlari ham matnlar asosida yaratiladi

PIRLS ta'rifiga ko'ra: o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qilish qobiliyatidir.

O'qish savodxonligining maqsadi:

**Badiiy tajriba orttirish:**

Badiiy kitoblarni o'qishda o'quvchilar voqealar, voqealari, obrazlar, oqibatlar, personajlar, asar muhiti, hissiyotlar va g'oyalar bilan yo'g'rilgan matnni o'qiydi va matndan huzurlanadi.

Badiiy asarda tasvirlangan voqealar, harakatlar va oqibatlar hayoliy bo'lsa-da, o'quvchiga ular real hayatda sodir bo'layotgandek tasavvur uyg'otadi va o'quvchiga ularni boshidan kechirish imkonini beradi.

**Axborotni olish va undan foydalanish:**

Axborot beruvchi matnlarning asosiy vazifasi ma'lumot berishdan iborat bo'lganligi sababli, odatda, yozuvchilar o'zları yoritmoqchi bo'lgan mavzuga turli maqsad bilan yondashadi. Ko'pgina axborot beruvchi matnlarda faktlar biror topshiriqni bajarish bosqichlari yoki biografik tafsilotlar kabi to'g'ridan to'g'ri bayon etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari turli mavzularni qamrab olgan axborot beruvchi matnlarni: ilmiy, tarixiy, jug'rofiy yoki ijtimoiy matnlarni o'qishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturiga tayyorlashda, avvalo, ularni kreativ fikrlashga o'rgatishimiz zarur. O'quvchilarga turli muammolar bilan mustaqil ishlash imkoniyatini berishdan oldin, ularni mashqlar yordamida hal qilishning umumiyligi algoritmlarini ko'rib chiqish kerak. O'quvchilar vazifalarni bajarishda muammoning mohiyati bo'lgan ob'yektlar qanday muammoligini farqlashni va bunday muammolar qancha ekanligini aniqlash va hal qilish tamoyilini o'zlashtirishi lozim. Bunday analitik vazifalar, spekulyativ rejada ishlashga, bosqichma-bosqich o'tishni amalga oshiradi. Bunday holda, har bir xususiyat alohida tahlil qilinmaydi, balki butun xususiyatlar to'plami hisobga olinadi. Shu bilan birgalikda tegishli tushunchalar, vazifalarning yonmaydon joylashishi, taqqoslanishi, qarama-qarshiligi, ko'rib chiqilayotgan faktlardagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga katta ahamiyat beriladi. O'quvchilarda kerativ fikrlashni rivojlantirish mazmuni tahlili shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarning kerativ fikrlashni rivojlantirish uchun yosh o'quvchilarning mustaqil tahlil qilish va fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirish, intellektualni shakllantirish uchun sharoit yaratish, harakatlar, masalan turli mashqlardagi vazifalarni solishtirish, ularning tasnifini o'tkazish, taklif qilingan vaziyatni tahlil qilish va xulosalar bilan muhim xususiyatlarni ajratib ko'rsatish, o'zlashtirilgan harakat usullarini yangi o'quv vaziyatlarida qo'llash. Boshlang'ich sinflarda kerativ fikrlashni maqsadli shakllantirish uchun psixologik-pedagogik sharoit yaratish izchil, tizimli ish olib borish kerak, bu orqali yosh o'quvchilarning kerativ fikrlashi rivojlanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.S.B.Qorayev, S.B.Allayorova “Boshlang’ich sinf o’quvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturi tizimiga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari”.

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to’plami. 2020-yil.

2. S.B.Sangirova, J.A.Raxmatov, S.G’.Xasanova, M.T.Hojiyeva “Umumta’lim maktablari uchun STEAM ta’limini joriy etish(Metodik qo’llanma).

Toshkent. 2022-yil

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida” gi № PP3931-son qarori

4. Tadqiqoti qamrov doirasi Ina V.S. Mullis va Michael O. Martin, muharrirlar Toshkent-2021.

5. G.A.Yusufaliyeva, N.N.Abduraxmonova, A.M.To’rabekova “Boshlang’ich sinf o’quvchilarida kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda o’qituvchining roli”. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to’plami. 2021-yil.

6.@milliymarkaz